

**UMUMTA'LIM MAKTABLARINING IJTIMOIY -MADANIY VA MA'RIFIY
SOHALARI PEDAGOGIK FENOMEN SIFATIDA**

Hamidova Nozima Bahromboy qizi¹

¹ ATMU boshlang'ich ta'lim yo'nalishi magistranti

**MAQOLA
MALUMOTI**

MAQOLA TARIXI:

Received: 04.02.2025

Revised: 05.02.2025

Accepted: 06.02.2025

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada umumta'lism maktablarining ma'naviy-ma'rifiy sohasi pedagogik fenomen ekanligi, ta'lim sohasida qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari majmuasi, ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarish, sinfdan tashqari ishlar mazmuni, davlatimiz tomonidan amalga oshiriladigan tub islohatlar haqida fikr yuritilgan.

KALIT SO'ZLAR:

*fenomen, soha,
axborot, siyosiy,
ta'limiy, madaniy,
institutsional*

KIRISH. O'zbekiston Respublikasi prezidentining “2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” gi 2022 yil 1 yanvardagi PF-60-son Farmonida IV. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida keltirib o'tilgan. Bunda 41-maqсад: Maktablarni rivojlantirish milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta'limi tizimida qo'shimcha 1,2 million o'quvchi o'rni yaratish. Yangi maktablar qurish, xususiy maktablarni ko'paytirish, ta'lim sifatini oshirishni nazarda tutuvchi milliy dasturni ishlab chiqish va amalga oshirish. O'quv o'rnlari sonini 2026 yil yakuniga qadar 6,4 milliongacha yetkazish. Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi tashkilotlarga sharoit va imkoniyatlarni kengaytirish orqali ularning ulushini 2026 yilda 8 foizga, shu jumladan 2022 yilda 3 foizga oshirish. 2022 — 2026 yillarda 217 ta “Barkamol avlod” bolalar maktabini rivojlantirish bo'yicha dasturni amalga oshirish. Yoshlarni san'at dunyosiga oshno etish, kompyuter va IT texnologiyalari soxasida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari uchun zarur jihozlar bilan ta'minlangan 100 mingdan

ortiq bepul to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish. Chekka hududlarda maktab hamda maktabgacha ta'lim muassasalarigacha transport qatnovini yo'lga qo'yish.

42-maqсад: 2026 yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklarni ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ko'rib chiqib, amalda joriy etish. Milliy o'quv dasturiga asosan 2026 yilga qadar 699 nomdagi, shu jumladan 2022 yilda 296 nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, o'qituvchi metodika kitoblari hamda mobil ilovalarni yaratish. Milliy o'quv dasturi bo'yicha yangi metodikalarga o'qituvchilarni o'qitish maqsadida Elektron malaka oshirish platformasi uchun 2026 yilga qadar jami 769 ta videodars yaratish. Umumta'lim maktablarida darslik va o'quv-metodik majmualarni tajriba-sinovdan hamda chet ellik mutaxassislar ishtirokida ekspertizadan o'tkazish tizimini joriy etish.

43-maqсад: Malakali o'qituvchilarning oylik maoshlarini bosqichma-bosqich 1000 AQSH dollari ekvivalentiga yetkazish. Iqtidorli o'qituvchilarning ish haqlarini malaka toifasiga qarab tabaqa lashtirilgan holda oshirib borish. O'qituvchilarga malaka toifalarini berish tartibini tubdan qayta ko'rib chiqish hamda malakani baholash metodikasi asosida adolatli va shaffof tizimni joriy etish.

44-maqсад: Maktablarda ta'lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish. Maktabda faoliyat olib borishi uchun har bir fan bo'yicha mahalliy yoki xalqaro sertifikatsiya talablarini belgilash. Toifaga ega bo'limgan maktab o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini diagnostikadan o'tkazish. Maktablarda direktor va uning o'rinnbosarlarini tayinlash tizimini maktab o'qituvchilari va ota-onalarning ishtiroki ta'minlanishini nazarda tutgan holda yanada takomillashtirish. Xalq ta'limi tizimi tuman bo'linmalari faoliyatini to'liq raqamlashtirish hisobiga optimallashtirish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy soxani o'rganishning dolzarblii mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy soxalarda sodir bo'layotgan jadal o'zgarishlar va u bilan bog'liq talablarga javob beradigan topshiriqlarni qayta ko'rib chiqishdan iborat. Xalq ta'limi ta'lim tizimi oldida turgan vazifalarni aniqlash va keyingi rivojlanish istiqbollarini belgilash maqsadida ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy soxani tahlil qilish zaruratini keltirib chiqardi.

Tadqiqotchilar "soha" tushunchasini axborot, siyosiy, ta'limiy, madaniy, iqtisodiy soxalar haqida gapiradilar. Soha - bu obyektlarning funksional hususiyatlari, ular orasidagi yo'nalish bilan belgilanadigan, o'zaro ta'sir o'rnatuvchi obyektlar to'plamidir. Soha umuman olganda uzluksizlik va uzviylik kabi bir-birini istisno qiluvchi ta'lim xususiyatlari bilan tavsiflanadi.

So'nggi yillardagi "soha" atamasidan foydalanishda tarbiya soxasi, ta'lim soxasi, bolalik soxasi, yagona ta'lim soxasi, ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy soxa va boshqalar ta'kidlanadi. Sanab o'tilgan elementlar to'plamining har biri inson faoliyatining ma'lum bir soxasini tavsiflaydi.

Ta'lim soxasi tushunchasi pedagogikaning tushuntiruvchi apparatiga keng joriy etilgan bo'lib, M.Y.Vilenskiy, V.I.Ginetsinskiy, V.Y.Konev, YE.V. Mesheryakova, V.I.Panov, V.I.Slobodchikov, I.G.Shendrik va boshqalar o'z ilmiy ishlarida ta'lim soxasi faoliyatining turli aspektlarini o'rganib chiqqanlar.

Ta'lim sohasi deganda pedagogikada shaxs shakllanishining sharoitlari, munosabatlari, ta'sirlari, imkoniyatlarining majmuasi tushuniladi. Ta'lim soxasi deganda qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari majmuasi, ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarish, sinfdan tashqari ishlar; ta'lim va ishlab chiqarish bilan o'zaro hamkorlikni o'z ichiga olgan tizim tushuniladi.

O.A.Leontyeva ilmiy adabiyotlarda ta'lim soxasini metafora sifatida; ta'lim muxiti atamasining sinonimi sifatida; ta'lim tizimining mavjud elementlarining mumkin bo'lgan integratsiyalashuvi natijasi; ijtimoiy soxa darajalaridan birining asl ma'nosи, siyosiy, iqtisodiy, madaniy soha bilan birga; mamlakatlar ijtimoiy munosabatlaridagi fenomen sifatida, birlikning o'ziga xos sifati sifatida; loyixalash kasbiy faoliyati natijasi sifatida tushuntiradi.

Shunday qilib, ta'lim soxasini ishtirokchilarining loyihibaviy integratsiyalashgan faoliyati natijasi sifatida talqin qilish mumkin. Ta'lim soxasi quyidagi tavsifli hususiyatlarga ega:

- *ko'p yo'naliшhilik*, ya'ni mazmun, shu jumladan ta'lim texnologiyalari hususiyatlari ko'ra differensial ta'lim xizmatlarini tasvirlash;
- *ko'p funksiyalilik*, ya'ni turli maqsadlarga muvofiqlik va turli darajadagi va turdag'i vazifalarni hal qilish imkoniyati, ta'lim faoliyatini amalga oshirish;
- *moslashuvchanlik va o'zgaruvchanlik*, ya'ni ta'limning yuqori darjasи, o'zgaruvchan vaziyatlarga tez moslashish kasbiy refleksivlik.

O'zbekiston Respubdikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasida ta'lim soxasidagi asosiy tamoyillar keltirib o'tilgan: ta'lim ustuvorligining tan olinishi; ta'lim olish shaklini tanlash erkinligi; ta'lim soxasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi; ta'lim olishga doir keng imkoniyatlarning ta'minlanishi; ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi; ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati; ta'limning uzluksizligi va izchilligi; o'n bir yillik ta'limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni bir yil davomida umumiyl o'rta ta'limga tayyorlashning majburiyligi; davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari doirasida ta'lim olishning

hamma uchun ochiqligi; o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi; insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi; jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi; ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi; bilimlilik, qobiliyatlilik va istedodning rag'batlantirilishi; ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruving uyg'unligi; ta'lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.

"Ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy soha" "ta'lim sohasi" dan ko'ra kengroq ma'noni bildiradi. V.D.Gatalskiy ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy soha mazmunidagi sub'ektiv-qadriyatli komponentlarni ajratib ko'rsatadi va uni ijtimoiy-pedagogik tizim hamda mazmunan va mohiyatan vaqt davomiyligida shaxs madaniyatining mazmunli-qadriyatiy tarkibiga kirishiga, uning ijtimoiy yaxlitlik va shaxsiy o'zini o'zi anglashiga yordam beradi deb hisoblaydi. N.B.Usatayaning esa ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy soxa shaxsning rivojlanish sharoitlari va imkoniyatlari majmuasini o'z ichiga olib, shaxs joylashgan makonda shakllanadi va pedagogik jarayonning sub'ektlari tomonidan yaratiladi deb ta'kidlaydi.

Insonning ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy soxasi Saratov fikricha, inson hayot faoliyatining zamonaviy modeli va integratsion fenomeni deb hisoblaydilar va uning haqiqiy holati va dinamikasini tubdan o'rganadi.

Ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy soxa va ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy muxit tushunchalari bir xil tushunchalar emas. Shunga ko'ra, I.M.Nichipurenkoning fikrlari haqiqatga yaqin bo'lib, ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy muxit ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy soxaning tarkibiga komponent sifatida kiradi, shaxsga obyektiv va sub'ektiv ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, I.M.Nichipurenko ta'sir degana insonning shaxsiy rivojlanishga pedagogik jixatdan boshqariladigan ta'sirni nazarda tutadi.

Ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy soha turlicha va ko'p qirrali bo'lib, obyektiv ravishda yuqori noaniqlikka ega va shuning uchun uni aniq tasvirlab bo'lmaydi. Bu insonning erkin rivojlanishini va natijada ta'lim-tarbiya jarayonida insonparvarlikni namoyon bo'lishini ta'minlaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib ta'kidlash mumkinki, ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy soxa - ta'limiy va ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy muassasalar sifati hamda ijtimoiy-madaniy muhit bilan belgilanadigan shaxs rivojlanishi uchun shart-sharoit va pedagogik imkoniyatlar yig'indisidir. Majoziy ma'noda ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy soha o'quvchiga ta'lim va tarbiya berish jarayonida bevosita o'rab turgan institutsional ta'lim tizimi, ijtimoiy va ma'naviy omillar va tashkiliy-pedagogik, pedagogik-psixologik va didaktik shart-sharoitlar majmuiga nisbatan uzviy deb tushuniladi.

Ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy soxa – ta'lim va tarbiya jarayonida va jamiyat hayotida turli vaziyatlar va kasbiy muammolarni hal qilishga qaratilgan ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy qadriyatlarning mahsus tashkil etilgan tizimidir. Ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy soxa – ta'limning rivojlanayotgan yaxlitligi bo'lib, uning komponentlari ta'lim jarayoni sub'ektlari tomonidan insonparvarlik qadriyatlarini o'zlashtirish va boshqalarga yetkazish uchun foydalaniladi.

Ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy soxa madaniyat va ma'rifat o'rtasidagi munosabatni o'zida mujassamlaydi. Madaniyat ta'lim mazmunining asosiy manbai bo'lib, insonning ma'naviy va moddiy faoliyatidagi qadriyatlarini, shaxsning madaniyat tashuvchisi va yaratuvchisi sifatidagi hususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi, ta'lim esa madaniyatni o'zlashtirish maqsadiga yo'naltirilgan usul sifatida maktabning ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy soxasida maqsadga muvofiq rivojlanadigan imkoniyatlarni o'zlashtirish jarayonida xamkorlik, ijokorlik munosabatlarini o'rnatish uchun pedagogik shart-sharoit yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdrakipova G.R. Rol kulturno-obrazovatelnogo prostranstva vuza v formirovaniii sotsialnoy otvetstvennosti molodezi / G.R. Abdrakipova // Teoriya i praktika obrazovaniya v sovremennom mire: materiali mejdunarodnoy nauchnoy konferensii (g. Sankt-Peterburg, fevral 2012 g.). - SPb.: Renome, 2012. - S. 29 9-301.
2. Alliyarov A.D. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish // p.f.f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. -T.: 2020. -52 b.
3. Amonashvili Sh. A. Gumanaya pedagogika. Aktualniye voprosi vospitaniya i razvitiya lichnosti / Sh. A. Amonashvili // Seriya "Pedagogika i psixologiya": shkola jizni. - M., 2010.
4. Amonashvili Sh. A., Zagvyazinskiy V.A., Zagvyazinskiy V.I. Pariteti, prioriteti, aksenti v teorii i praktike obrazovaniya / Sh. A. Amonashvili, V. A. Zagvyazinskiy, V. I. Zagvyazinskiy // Pedagogika. - 2000. - № 2. - S. 11-16.